

Date: 21<sup>st</sup> March-2025

**ISATIS TINCTORIA L O'SMA O'SIMLIGI TARKIBIDAGI VITAMINLAR TAHLILI**

**S.Majidov, R.Abrorova**  
Guliston davlat universiteti




Isatis tinctoria L(o'sma) o'simligi— karamguldoshlarga mansub ko'kimtir, tuksiz ikki yillik o't. Vohalarda madaniy va yovvoyi holda uchraydi. Ilgari G'arbiy Yevropada nil bo'yog'i olish uchun ekilgan. Birinchi yili to'pbarg hosil qiladi. Ikkinchi yili to'pbarg bo'yi 25—100 sm bo'lgan poya chiqaradi, shoxlaydi.

Barglari cho'ziq nashtarsimon, poyadagilari bandsiz, cheti tekis, poyani o'rgan, ro'vaksimon to'pgul hosil qiladi. Aprel, sentabr oylarida gullab, mevalaydi. Gullari sariq. Mevasi ingichka, cho'ziq chatnamaydigan qo'zoqcha. O'sma bargining shirasida nil bo'yog'i bor. Qadimdan o'zbek xonadonlarida ayollar qosh, ko'zlariga qo'yish uchun hovlilarda o'stiriladi[1].



**1-rasm. Isatis tinctoria(o'sma) o'simligi(gullagan davri)**


Biroq bu o'simlik biokimyoviy tarkibi bilan boshqa o'simliklardan ajralib turadi. Chunki o'simlik bargi va ilidizi tarkibida juda ko'plab biologik faollika ega bo'lgan kimyoviy birikmalarni saqlaydi. Jumladan, tirik organizmlar hayot faoliyati uchun muhim sanaladigan vitaminlar bunga misol bo'la oladi. Masalan, ayrim tadqiqot natijalariga ko'ra o'sma o'simligi barglarida B guruhga kiruvchi vitaminlar, C va vitamin PP larning mavjudligi va miqdori aniqlangan.



**2-rasm. O'sma o'simligi barglari ekstakti xromotogrammasi**

Date: 21<sup>st</sup> March-2025

Xromotografik analiz natijalariga ko'ra, o'simlik barglari tarkibida quyidagi Vitamin B<sub>2</sub>-0,91mg/g, Vitamin PP(B<sub>3</sub>)C lar-1,71mg/g miqdorda ekanligi aniqlangan[2].



**Vitamin B<sub>2</sub>,**

**Vitamin PP(B<sub>3</sub>)**

**Vitamin C**

Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib shunday xulosa qilish mumkinki, tabiiy va mahalliy o'sma o'simligidan tibbiyot va farmasevtika sohasida foydalanish ko'plab insonlarning salomatligi bilan bog'liq muommolarni hal qilishga va turli farmasevtik preparatlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
2. Тиллаева Г. У., Набиев А. Х., Хакимжанова Ш. О. Изучение биологически активных веществ, содержащихся в составе сухого водного экстракта вайды красильной// Central asian journal of medical and natural sciences. Volume: 05 Issue: 01 | Jan-Feb 2024 ISSN: 2660-4159

